

NUTQDA QO‘LLANUVCHI VULGARIZMLARNING LINGVOEKOLOGIYAGA TA’SIRI

Suvonova Ruxsora Umar qizi,

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada nutqimizda ko‘p ishlatiluvchi vulgar qatlam elementlariga to‘xtalib o‘tildi. Ularning til ekologiyasiga ta’siri ko‘rib chiqildi. Nutqimizda qo‘llanuvchi salbiy-vulgar so‘zlarning izohi keltirildi. Ushbu so‘zlarning tilning leksik me’yoriga to‘g‘ri kelish-kelmasligi haqida fikr bordi. Shu asnoda, vulgar iboralarning ham izohi berildi.*

Kalit so‘zlar: *salbiylik, ijobiylik, vulgarizmlar, vulgar so‘z va iboralar*

ВЛИЯНИЕ ВУЛЬГАРИЗМОВ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В РЕЧИ НА ЛИНГВИСТИЧЕСКУЮ ЭКОЛОГИЮ

Дочь Сувоновой Рухсоры Омара,

Студентка Ургенчского государственного университета

Абстрактный. *В статье были затронуты элементы вульгарного слоя, которые часто используются в нашей речи. Рассмотрено их влияние на языковую экологию. Объясняются негативные и вульгарные слова, используемые в нашей речи. Существовало мнение о том, соответствуют ли эти слова лексическому стандарту языка. При этом были разъяснены и нецензурные выражения.*

Ключевые слова: *негатив, позитив, вульгаризмы, вульгарные слова и словосочетания.*

THE IMPACT OF VULGARISMS USED IN SPEECH ON LINGUISTIC ECOLOGY

Suvonova Rukhsora Omar's daughter,

Student of Urganch State University

Abstract. *The article touched on the elements of the vulgar layer that are often used in our speech. Their impact on language ecology was considered. The negative and vulgar words used in our speech are explained. There was an opinion about whether these words correspond to the lexical standard of the language. At the same time, vulgar expressions were also explained.*

Key words: *negativity, positivity, vulgarisms, vulgar words and phrases*

Inson shaxsiyati va uning ma'naviy olamining yuksalishida tilning, xususan ona tilining o'rni beqiyosdir. So'zlovchining nutqi uning tabiati va madaniyatini ko'rsatuvchi muhim belgilardan biridir. Hadisi shariflarda ham "Kishining zeb-u ziynati, go'zalligi uning tilidandir", – deyilgan. Biroq, so'zlovchining nutqida hamma vaqt ham ijobiy sifatlar namoyon bo'lavermaydi. Tilda qo'llanilayotgan leksik birliklar safidagi salbiylik hamda ijobiylik elementlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tilimizda qo'llanadigan leksemalarni ishlatilish doirasi chegaralanmagan va ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalarga ajratib o'rganamiz. So'zlashuv paytida ishlatiladigan, tilda salbiylik unsurlarini ifodalovchi vulgarizmlar ham qo'llanilishi chegaralangan leksik birliklar qatorida o'rganiladi. Vulgarizmlar – haqorat ma'nosida qo'llanuvchi so'zlardir. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma'nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo'llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.¹ Kishi nutqida qo'llanilayotgan vulgar – haqorat so'zlar ham inson shaxsiyatini ochib berishga yordam beradi. Salbiy hamda ijobiy so'zlardan foydalanish kishining bilim salohiyati bilan ham bog'liq. Nutqida salbiy so'zlardan

¹ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. 203-b.

ko‘p foydalanuvchilarning aksariyati o‘zi ishlatayotgan so‘zning asl ma‘nosini yaxshi anglamaganidan darak beradi. Bu kabi ilmsizlik natijasida tilning ekologiyasiga ham jiddiy putur yetadi. Ushbu tadqiqotimizda esa nutqimizdagi ayrim salbiy – vulgar so‘z va iboralarning izohini ko‘rib chiqamiz.

Vulgar so‘z va iboralarda kishilarni haqoratlash bilan birga, ularning kamchiliklarini aytib, shaxsiyatiga tegish holatlari uchraydi. Inson jahli chiqqan paytda, ba‘zan ishlatib qo‘ygan so‘zlarining ma‘nosiga e‘tibor bermaydi. Masalan, kishilar bilan suhbatda yoki yomon vaziyatlarda ularga nisbatan haqorat ma‘nosida hayvon nomlari yoki hayvoniy sifatlarni shaxsga nisbatan ishlatib qo‘yadi. Nutqimizda *it, eshak, ilon, chayon, ko‘ppak, maxluq* va shunga o‘xshash leksik birliklardan foydalanamiz. Ushbu so‘zlar ko‘chma ma‘noda ishlatilganda vulgar qatlam birliklariga kiradi. Bilamizki, *it* leksemasining narsalarni qo‘riqlash uchun boqiladigan uy hayvon ma‘nosida nutqimizda ko‘p qo‘llaymiz. Ko‘chma ma‘noda esa *“birovning manfaatlarini himoya qilib, boshqalarga zulm o‘tkazuvchi odam; malay”*² ma‘nosida hayvoniy sifatlarga ega insonga nisbatan ishlatiladi. *Azizbek qarshisida qo‘l bog‘lab turgan darvoza begiga baqirdi: – Nega qarab turasan, darvoza ustiga chiq, kim ekan u it?! (A. Qodiriy, O‘tgan kunlar)*. Shu bilan birga, *it emgan, itvachcha, itdan tarqagan* leksik birliklarini ham nutqimizda ishlatilishiga guvoh bo‘lamiz. Masalan: – *Bu yoqqa kel, it emgan! – dedi mingboshi, qizil ko‘zlarini ola-bula qilib (M. Ismoilov, Farg‘ona tong otguncha)*. *Ko‘ppak* leksemasi ham itning bir zoti ma‘nosida qo‘llaniladi. Vulgar qatlamda *it, itvachcha* birliklari bilan birga ishlatilishi mumkin. – *Ha, noinsof, ha ko‘ppak! – Qoratoy boyni so‘ka boshladi (Oybek, Qutlug‘ qon)*.

Nutqimizda ma‘nosi orqali qisman salbiylik ifodalovchi *yovvoyi*³, *yelim*,⁴ *zuluk* kabi, *isqirt*⁵, *bez*⁶ singari salbiyligi ancha yuqori turuvchi vulgar birliklar ham mavjud. O‘z ma‘nosidan tashqarida nutqimizda shu kabi birliklarni vulgarizmlar

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom. – Moskva: Rus tili, 1981. 338-b.

³ O‘sha manba, 245-b.

⁴ O‘sha manba, 245-b.

⁵ O‘sha manba, 338-b.

⁶ O‘sha manba, 95-b.

sifatida tez-tez qo'llanishini ko'rishimiz mumkin. **Yovvoyi** leksemasi hayvonlarga nisbatan ishlatiladigan so'z bo'lib, madaniyati qoloq huddiki, hayvoniy sifatlarga ega bo'lgan shaxsga nisbat qilib ishlatiladi: *Bu yovvoyi kelib hamma joyni vayron qildi. Yelim* so'zi salbiy ma'noda shilimshiq, shilqim odamga nisbatan ishlatiladi. Masalan: *Karimovga o'xshaganlar ilib ketishi ham mumkin. O'zi o'taketgan yelim odam deyishadi* (P. Tursunov, O'qituvchi). **Zuluk** yoki **zulukday** birliklari ham o'z lug'aviy ma'nosida "hayvonlar qonini so'rib ovqatlanishga moslashgan, chuchuk suvlarda yashaydigan chuvalchanglarning bir turi"⁷ ma'nosida ishlatiladi. Bu kabi xislatlarni insonga qiyoslab haqorat ma'nosida qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Bunda kishilar hisobiga yashovchi, tekinxo'r kimsalar nazarda tutiladi: *Xon – jallod, qozikalon – o'rgimchak, yasovulboshilar esa zuluk edi* (J. Sharipov, Xorazm). Shunga o'xshash misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Nutqimizda qo'llanuvchi birliklarning hech biri bejizga ishlatilmaydi. Albatta, biror ehtiyoj yuzasidan, yoki nutq talabi bilan qo'llaniladi. So'zlashuv jarayonida ko'p uchratadigan **bad** so'zi va u bilan yasaladigan qo'shma so'zlar ham salbiylik ifodalovchi birliklar sirasiga kiradi. Ushbu so'zga lug'atlarda fors-tojikcha so'z bo'lib, "yomon, yaramas" deya izoh beriladi. *Qo'shma so'z tarkibida uning birinchi qismi bo'lib keladi va "yomon" ma'nosini bildiradi, mas. badniyat, badnafis, badfe'l.*⁸ Birinchi qism o'zidan keyin qo'shilayotgan so'zning salbiylik ma'nosini ifodalashda ishlatiladi. Masalan, *meni qarg'amang, qarg'amang badbaxt qizingizni, onajon!* (Hamza, Boy ila xizmatchi). *Baxt* so'zi bu o'rinda ijobiy ma'no tashishga xizmat qilmasdan, *bad* so'zi bilan birgalikda *baxti qaro, toleyi past* ma'nosini anglatyapti. Ushbu so'zlar qatoriga yana **bez** leksemasini ham kiritish mumkin. Ko'chma ma'noda ushbu so'z gap ta'sir qilmaydigan odamlarga nisbatan *surbet, bezbet* ma'nosida ishlatiladi, **bez bo'lib** shaklida ishlatilish o'rinlari ham mavjud. Nutqimizda **bez termoq** iborasi ham qo'llaniladi. Ushbu ibora tuban ishga qo'l urmiq ma'nosini ifdalaydi. *Bundan ko'ra bez tering. – Sipohilarning quli bo'lgandan ko'ra, bez tergan afzal, - dedi Avaz qat'iy qilib* (J. Sharipov, Xorazm).

⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom. – Moskva: Rus tili, 1981. 310-bet.

⁸ O'sha manba, 70-bet.

Nuq jarayonida bu kabi ko‘plab so‘z va iboralarning ko‘chma ma’noda salbiylik ifodalash o‘rinlariga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, har qaysi til birliklarini o‘z ishlatilish sharoitidan kelib chiqqan holda qo‘llanishi so‘zlovchi va tinglovchi uchun tushunarli hamda aniq bo‘lishiga zamin yaratadi. Nutqimizning tartibliligiga erishish orqali esa, tilimizning muhofazasiga va uning ekologiyasiga ijobiy ta’sir o‘tkaza olamiz. Shunday ekan, har bir nutq elementlarining ishlatilish o‘rniga e’tiborli bo‘lmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom. – Moskva: Rus tili, 1981. – 632 b.